




**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING
YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

Xalqaro ilmiy-amaliy
konferensiyasi to'plami

21 IYUN

2023





**RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING YANGI O'ZBEKISTON
RIVOJIGA TA'SIRI**

**ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА РАЗВИТИЕ
НОВОГО УЗБЕКИСТАНА**

**IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE DEVELOPMENT
OF NEW UZBEKISTAN**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plami



JUNE 21, 2023
KOKAND UNIVERSITY

"O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublika Prezidentining 5847-sonli Farmonida ko'zda tutilgan vazifalardan biri – ilmiy izlanish yutuklarini amaliyotga joriy etish yo'li bilan fan sohalarini rivojlantirish, ya'ni xalqaro ilmiy hamjamiyatda e'tirof etilishiga xizmat qilishdir. Shu va boshqa tegishli farmonlarda va qarorlarda belgilangan vazifalarini amalga oshirish maqsadida 2023 yil 21-iyun kuni Qo'qon universiteti "Raqamli texnologiyalar va matematika" kafedrasida "Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri" mavzusidagi xalqaro miqyosida o'tkaziladigan ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to'plamini e'lon qiladi



MAS'UL MUHARRIR

Zahidov G'ofurjon Erkinovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIRIYAT HAY'ATI

G'ulomov Saidahrur Saidahmedovich – iqtisodiyot fanlari doktori, akademik;

Ahmedov Durbek Quدراتillayevich - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Mahmudov Nosir Mahmudovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Butaboyev Muhammadjon - iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Islamov Anvar Ashirkulovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent;

Ruziev Shohrusbek Ravshan o'g'li - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mulaydinov Farxod Murotovich – Qo'qon universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrasida mudiri

Texnik muharrir – Solidjonov Dilyorjon Zoirjon o'g'li



Ta'lim sifati yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili / Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami. Kokand university, 2023 yil 21 iyun, - «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» 2023.

© Matn. Mualliflar, 2023.

© Kokand university, 2023.

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», original maket, 2023.

No	MAQOLA SARLAVHASI VA MUALLIFLARI	SAHIFASI
1-SHO'BA. DAVLATNING IQTISODIY TARAQQIYOTIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI		
1	FORECASTING GROSS DOMESTIC PRODUCT (GDP) AND GDP GROWTH: AN EXPLORATION OF IMPROVED PREDICTION USING MACHINE LEARNING ALGORITHMS - Azibaev Akhmadkhon Gulomjon ugli	9-14
2	ROLE AND PROBLEMS OF DIGITAL TECHNOLOGY IN SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP - Kosimov Sardor Dilmurodovich	15-17
3	O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI TATBIQ QILISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI YUMSHATISH - Usmonova Odinaxon Lazizbek qizi	18-19
4	ADMINISTRATIVE LEGAL REGIME OF THE EMERGENCY SITUATION - Jalilov Ahmadbek Ikromjon ugli	20-26
5	ЗНАЧЕНИЕ ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЯ - Джалилов Ахмадбек Икромжон угли	27-31
6	DAVLATNING IQTISODIY O'SISHIDA INKLYUZIV VA EKSTRAKTIV INSTITUTLARNING O'RNI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Abdullajonova Gulmira Qaxramon qizi	32-35
7	КИЧИК БИЗНЕС ФАОЛИЯТИНИ РАҚАМЛАШТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ ТИЗИМИ ВА ҲОЗИРГИ ҲОЛАТИ ТАҲЛИЛИ - Рахмонов Нодиржон Рахмонжон ўғли	36-43
8	FUNCTIONAL RELATIONS AND FUNCTIONAL MODELS OF THE PARTICIPANTS OF THE INFORMATION COMMUNICATION MARKET - Butayev Eldorbek Homitjonovich	44-49
9	RAQAMLI IQTISODIYOTDA OZIY-OVQAT XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI - Mulyadinov Farhod Murotovich, Numonov Fayzulla Nurmuhammadjon o'g'li	50-53
2-SHO'BA. TA'LIM VA TARBIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASHNING MUAMMO VA YECHIMLARI		
10	СКВОЗНЫЕ ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ОБУЧЕНИИ МАТЕМАТИКЕ - Агафонов Александр Алексеевич	55-58
11	IMPROVING ENGLISH LISTENING COMPREHENSION THROUGH COMPUTER TECHNOLOGIES TO PRIMARY SCHOOL CHILDREN - Abdullayeva Barno Umidullo qizi	59-60
12	WHY STEM LEARNING IS IMPORTANT IN ENGLISH LEARNING - Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi	61-64
13	ZAMONAVIY MAKTAB TA'LIM JARAYONINDA SIMSIZ TARMOQLAR TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH - Yokubjonov Sardorbek Sobitjon o'g'li	65-67
14	THE ROLE OF COMPUTER TECHNOLOGY IN STUDENTS' INDEPENDENT WORK - Nosirova Dilnurabonu Nodir qizi, Mahmudova Iroda Ismoilovna	68-72
15	POTENTIAL PROBLEMS WITH PEER RESPONDING IN EFL WRITING CLASSES - Dilyorjon Solidjonov	73-75
16	BUGUNGI KUNDA TA'LIM TIZIMI VA ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Azimova Niginaxon	76-78
17	MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNALOGIYALARINING O'RNI - Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li, Murodjonova Ibodatxon Dexqonboy qizi	79-82

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNALOGIYALARINING
O'RNI****Abdullajonov Davronjon Shokirjon o'g'li**

Qo'qon Universiteti, Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o'qituvchisi

Murodjonova Ibodatxon Dexqonboy qizi,

Qo'qon Universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishda va bolalarni har tomonlama yetuk qilib voyaga yetkazishda hamda ta'lim samaradorligini oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati to'g'risida fikr yutilgan.

Annotation: This article discusses the importance of modern information technologies in the use of information and communication technologies in preschool educational organizations, in the education and training of the young generation, in raising children to maturity in all aspects, and in increasing the effectiveness of education.

Kalit so'zlar: Zamonaviy texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya, ta'lim-tarbiya, innovatsiya, kadrlar, tasavvur, rivojlanish, pedagog.

Keywords: Modern technologies, information and communication, education, innovation, personnel, imagination, development, pedagogue.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar rivojlanib borayotgan hozirgi kompyuter asri davrida umumiy o'rta ta'limning biror o'quv fanini to'liq ravishda yoki uning qaysidir qismini axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dan foydalanib o'tsa qanday samara berishini, yoki AKTni qo'llashning pedagogik tamoyillarini, uning psixologik xususiyatlarini, uning bilish jarayoniga ta'sir qilish mexanizmi va omillarini, shuningdek, yana boshqa ko'p jihatlarini kompleks tadqiq qilish dolzarb bo'lib bormoqda. Bu esa ta'lim tizimida, xususan, o'quv jarayonlarini tashkil etish va sifatli ta'lim berish, o'quv-uslubiy ta'minotni rivojlantirish, ayniqsa, o'quv mashg'ulotlarini o'tish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha mazmun va mohiyat shakllanishiga asos yaratmoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimining mazmuni va sifati bizning jamiyatimizning dolzarb masalalari va ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanmoqda va uni rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish usullari va tadbirlari izlanmoqda, shu bilan birga maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarini joriy etish masalasi ommalashtirilmoqda. Ayni paytda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev rahnamoligida respublikamizda ta'lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida ta'lim

muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va undan samarali foydalanishni ta’minlash, ta’limga yangi axborot texnologiyalarini keng joriy etish, o’quv muassasalaridagi axborot-resurs markazlari faoliyatini zamonaviy talab va mezonlar asosida tashkil etish yuzasidan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuning uchun ham taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo’lgan maktabgacha ta’lim tizimini jadal rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarining samaradorligi beqiyosdir.¹³

Asosiy qism. Hozirgi jadal rivojlanayotgan mamlakatimizda texnika va texnologiyaga bo’lgan ehtiyojlar yuqori o’rinni egallaydi. Xususan, maktabgacha ta’lim tizimida bolaning texnikaga bo’lgan qiziqishi va texnologiyalardan foydalanish salohiyati bugungi kunda muhim o’rinni egallamoqda. Maktabgacha ta’lim muassasalarida axbarot-kommunikatsiyalaridan qanday foydalanish mumkin, degan savol tug’iladi. Albatta, bolaga faqatgina mashg’ulotlarning o’zi kamlik qiladi. Chunki maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchisi ba’zilar tajribasiz va malakasi endi rivojlanayotgan bo’ladi. Shu sababdan, bolaning ongini rivojlantirish, unga mustaqil fikrlashni o’rgatish uchun texnologiyalardan foydalanib, turli xil ibratli filmlar yoki multfilmlar qo’yib berish, yoki bola tez charchashi va zerikib qolishi mumkin, shuni hisobga olgan holda turli enerjayzer o’yinlarni tomosha qilib, uni birgalikda bajarishi mumkin. Faqatgina o’yin yoki videorolikning o’zi bilan cheklanib qolmaslik kerak. Xususan, chiroyli jihozlangan xona yoki barcha sharoitga ega bo’lgan muassasalar hammaga birdek ma’qul kelishi joiz. Buni qanday qilish mumkin? Masalan, bola kirayotgan xona shinam, televizor va tarbiyachi uchun kompyuter, internetdan foydalanish uchun Wi-Fi, agar zamonaviy talablarga javob beruvchi muassasa bo’lsa, bola o’ynashi uchun texnik robot o’yinchoqlar bilan jihozlangan bo’lishi kerak. Agar bola yoshlikdan texnika va texnologiyaga qiziqsa, u uchun barcha sharoitlar yaratilishi lozim. Chunki, hozirgi globallashuv jarayonida axborot-kommunikatsiyasining o’rni va IT sohasiga bo’lgan qiziqish hamda ehtiyojlar ancha yuqori.

Ta’lim-tarbiya jarayoniga bolalarni har tomonlama intellektual, ma’naviy-axloqiy va jismoniy rivojlantirishni ta’minlaydigan zamonaviy ta’lim dasturlari, ilg’or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, ularni maktabga tayyorlash darajasini oshirish, maktabgacha ta’limni boshqarishning zamonaviy standartlarini yaratish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko’ra, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi, Moliya vazirligi, Iqtisodiyot va sanoat vazirligining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi huzuridagi Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi muassisligidagi “Axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi” mas’uliyati cheklangan jamiyat (keyingi o’rinlarda Innovatsion markaz deb ataladi) etib qayta tashkil etish to’g’risidagi qaror ham qabul qilindi. Bunga ko’ra, Innovatsion markazning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: “Akademiya”, 2007 y.

- boshqaruvning zamonaviy standartlarini ishlab chiqish va maktabgacha ta'lim sohasiga joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga ilg'or axborot va pedagogika texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimining tegishli ravishda ishlashini ta'minlash;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazish;
- axborot xavfsizligining tegishli darajasini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi tizimida yagona axborot makonini shakllantirish;
- maktabgacha ta'lim sohasida innovatsion loyihalarni amalga oshirishni samarali tashkil etish maqsadida tadbirkorlik subyektlari, startap-loyihalar tashabbuskorlari, olimlar, moliya institutlari va boshqa manfaatdor shaxslar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kengaytirish uchun zarur tashkiliy-texnik va moliyaviy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;
- ta'lim-tarbiya jarayoni doirasida foydalanish uchun o'quv-metodik materiallarni, multimedia kontentini, maktabgacha ta'lim tizimi tashkilotlarining pedagoglari va rahbarlarini o'qitish hamda turli telekommunikatsiya kanallari orqali tarqatish maqsadli dasturlarini ishlab chiqish va ishlab chiqarish;
- maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining innovatsion axborot-kommunikatsiya va pedagogika texnologiyalari sohasidagi bilim va malakasini oshirish, innovatsion ta'lim muhitini tashkil etish;
- istiqbolli yo'nalishlarni belgilab olish va maktabgacha ta'lim tizimini, shu jumladan ta'lim sohasida ilmiy va amaliy tadqiqotlar tashkil etish hamda o'tkazish orqali rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash va yanada takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqishdan iborat.¹⁴

So'nggi yillarda maktabgacha ta'limda sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlar faoliyatida innovatsion yo'nalishlarni amalga oshirish, ta'lim va tarbiya sohasiga yangi yondashuvlar izlash tendentsiyasi mavjud.

Aynan O'zbekiston Respublikasi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'kidlanishicha, "Uzluksiz ta'lim-kadrlar tayyorlash tizimining asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi shaxs, davlat va jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir". "Maktabgacha ta'lim" atamasi 1997 yida YuNESKO qarori bilan kiritilgan bo'lib, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bosqichini tashkil etadi. Shu sababli bolalar bog'chalarini axborotlashtirish zamonaviy jamiyatning zaruriy haqiqatiga aylandi. Maktab ta'limini kompyuterlashtirish juda uzoq tarixga ega, ammo bolalar bog'chasida kompyuterlarning tarqalishi endilikda paydo bo'lmoqda. Shu bilan birga,

¹⁴<https://lex.uz/docs/-4372737>

o'qituvchining (shu jumladan maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining)ishini axborot manbalaridan foydalanmasdan tasavvur etib bo'lmaydi. AKTdan foydalanish maktabgacha ta'lim tashkiloti o'quv jarayonini boyitish, sifat jihatdan yangilash va samaradorligini oshirishga imkon beradi. Ta'limning barcha sohalarida yangi usullar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o'quv tizimini jadal va modernizatsiya qilish va ta'lim sifatini oshirish yo'llarini qidirish ishlari olib borilmoqda.¹⁵

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonni tashkil etishda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishda, metodik faoliyatni rejalashtirishda, pedagoglar va boshqa mutaxassislar faoliyatini nazorat qilishda, butun bir tizimning aniq monitoringini olib borishda qulaylik yaratadi. Shu bilan birga ulardan noto'g'ri foydalanish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi. Mazkur jarayon pedagoglar va ota-onalardan katta mas'uliyatni talab qiladi. Ular hamkorlikda bolaning har tomonlama riojlanishi uchun axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanishni ta'minlaydi. Zero, bugungi kunning eng dolzarb vazifasi ham kelajak egalari bo'lgan yosh avlodga maktabgacha ta'lim bosqichidanoq sifatli ta'lim va tarbiya berishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmanov A.I. Zamonaviy axborot texnologiyalari, – T.: “Akademiya”, 2007y.
2. <https://lex.uz/docs/-4372737>
3. Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi. Интернаука, 13-2,
4. Axborot texnologiyalari/M.Aripov, B. Begalov, Sh. Begimqulov, A 90 M. Mamarajabov. T.: Noshir, 2009.— 368-b. I. Oripov M. B
5. Maxborot -kommunikatsiya texnologiyalariabgacha ta'lim pedagogikasi kitobi Fotima QODIROVA, Shoista TOSHPO'LATOVA, Nargiza KAYUMOVA, Malohat A'ZAMOVA
6. Engaging Deaf and Hard of Hearing Students in the School Library: A Handbook for Teacher-Librarians Nadene Eisner University of Illinois at Urbana-Champaign Graduate School of Library Information Science 2 May 2012

¹⁵ Xalikova U.M. (2020). Maktabgacha ta'lim muassasalarida axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning dolzarbligi.